



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2021/5



MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 **ОДИЛҚОРИЕВ ХОЖИМУРОД
ТЎХТАМУРОВОВИЧ**
Қонунчилик ҳужжатлари тизимини
такомиллаштиришнинг замонавий ҳуқуқий
асослари
- 14 **МУХИТДИНОВА ФИРЮЗА
АБДУРАШИДОВНА**
Роль преемственности трудов Гафура Гуляма
в развитии духовно-просветительских традиций
будущих юристов
- 21 **ISMOILOV BEKJON SALIHOVICH**
Nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limi sohasida
O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish
muammolari
- 31 **ШАЯКУБОВ БАБУР АХМАДЖАНОВИЧ**
Стратегическое планирование:
теоретические и методологические аспекты

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ.
MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 39 **БЕКОВ ИХТИЁР РУСТАМОВИЧ**
Ўзбекистонда кўппартиявий тизимнинг
шаклланиши ва ривожланиши
- 50 **RAKHIMOV DILMURODJON
GULOMJON OGLI**
Some issues of the legal status of civil
servants in Uzbekistan

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA
HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 59 **БОЗАРОВ САРДОР СОХИБЖОНОВИЧ**
Искусственный интеллект: возможна ли
ответственность роботов?

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL
HUQUQI. XO‘JALIK PROTSESSUAL
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA
MEDIATSIYA

- 70 **ХАБИБУЛЛАЕВ ДАВЛАТЖОН
ЮЛЧИБОВЕВИЧ**
Фуқаролик ишлари бўйича биринчи
инстанция суди ҳужжатларини
такомиллаштириш масалалари
- 81 **ХАКБЕРДИЕВ АБДУМУРАД
АБДУСАИДОВИЧ**
Ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорини якуний
босқич сифатида ихтиёрий ижро этиш
- 88 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**
Fuqarolik sud ishlarini raqamlashtirishda sun'iy
intellektning o'rni
- 95 **XUDOYNABAYEV DADAXON
AVAZ O'G'LI**
Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda prokuror
ishtirokining ayrim masalalari
- 101 **DAVRONOV DONIYORBЕК
ABDULLO O'G'LI**
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual
majburlov choralarini tadqiq etish muammolari
- 110 **ХАЙРУЛИНА АСАЛЬ БАХОДИРОВНА**
Возникновение и развитие альтернативных
способов разрешения споров: национальный
и зарубежный опыт
- 117 **BEBUTOVA ZARNIGOR FAXRIDDINOVNA**
Fuqarolik protsessida advokat faoliyatining
dolzarb muammolari: milliy va xorijiy tajriba
- 125 **СУБХОНОВ ШЕРАЛИ МУХАММАД УГЛИ**
Некоторые вопросы совершенствования
механизма исполнения судебных решений
о взыскании алиментов

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI.
IJTIMOIY TA'MINOT HUQUQI

- 133 **ГАЗИЕВ ШАХРУХ МУРОДАЛИЕВИЧ**
Ҳарбий ижтимоий-ҳуқуқий ҳимоя:
тушунчаси ва моҳияти
- 140 **ТОШОВ МУХАММАД РАЖАБОВИЧ**
Ўриндошлик асосида ишламайдиган бошқа
ҳодимнинг ишга қабул қилиниши, шунингдек,
ўриндошлик иши чекланганлиги сабабли
меҳнат шартномасини бекор қилиш масалалари

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

148 **SUNNATOV VOHID TOSHMURODOVICH**

Qilmishni kvalifikatsiya qilish tushunchasi,
metodologik asoslari va bosqichlari

156 **ТОШПЎЛАТОВ АКРОМ ИКРОМОВИЧ**

Жиноят-хуқуқий принциплар: моҳият,
тушунча ва белгилар

166 **ALOYEV ULUG'BEK MAXMUDOVICH
ROZIMOVA QUNDUZ YULDASHEVNA**

Korrupsiyani keltirib chiqarishga ta'sir etuvchi
omillar

174 **АНОРБОВ МУРОДЖОН
РАХМАНКУЛ УГЛИ**

Общая характеристика преступлений
против правосудия

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

182 **USMANOVA SURAYYO BULTAKOVNA**

The legal and institutional regulation of tourism
in the Republic of Uzbekistan: emergence and
development

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA
NAZARIYASI VA METODIKASI
(SOHALAR BO'YICHA)

190 **АЗИМОВ ҲАКИМАЛИ ИМОМОВИЧ**

Амир Темурнинг тарихий мероси – инсоният
тараққиётининг муҳим омили

UDC: 343.9 (043.5) (575.1)
ORCID: 0000-0001-7084-555X

QILMISHNI KVALIFIKATSIYA QILISH TUSHUNCHASI, METODOLOGIK ASOSLARI VA BOSQICHLARI

Sunnatov Vohid Toshmurodovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish”

kafedrasida dotsenti vazifasini bajaruvchi,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),

e-mail: sunnatovv@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada qilmishni kvalifikatsiya qilish tushunchasi, metodologik asoslari va bosqichlari keltirilgan. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish murakkab jarayon bo'lib, kvalifikatsiyani amalga oshiradigan tergovchi, surishtiruvchi, prokuror va suddan mantiqiy fikrlashni, ko'plab fakt va belgilarni o'zaro solishtirgan holda qilmishga huquqiy baho berishni talab qiladi. Chunki muayyan jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida ishdagi haqiqiy holatlarni o'rganish va JK Maxsus qismida shunday turdagi jinoyatlarning barchasi uchun umumiy bo'lgan jinoyat huquqiy normaning mazmunini aniqlash orqali shaxsning qilmishiga huquqiy baho beriladi. Jinoyat huquqida qilmishni kvalifikatsiya qilishning, asosan, ikki turi mavjud: 1) rasmiy (legal); 2) norasmiy (doktrinal). Rasmiy kvalifikatsiya surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudyalardan tomonidan jinoyat va boshqa qonun normalari asosida amalga oshirilib, qaror bilan rasmiylashtiriladi. Yuridik adabiyotlarda rasmiy kvalifikatsiyaning belgilari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan: a) qilmishga berilgan baho huquqiy ahamiyatga ega bo'ladi; b) muayyan huquqiy oqibatni keltirib chiqaradi; d) kvalifikatsiya aniq jinoyat ishi materiallariga taalluqli bo'ladi. Rasmiy kvalifikatsiyadan farqli ravishda, norasmiy kvalifikatsiya jinoyat ishini yuritish vakolatiga ega bo'lmagan subyektlar (masalan, advokatlar, ommaviy axborot vositalarining xodimlari, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi huquqshunos olimlar) tomonidan amalga oshirilganligi sababli hech qanday yuridik oqibatlarni keltirib chiqarmaydi. Shuning uchun ham qilmishni kvalifikatsiya qilish haqida so'z yuritilganda, ko'pincha uning rasmiy shakli tushuniladi.

Kalit so'zlar: kvalifikatsiya, qonun ustuvorligi, qilmishni kvalifikatsiya qilish, jinoyat, tergovchi, jinoyat va jinoyat-protsessual kodekslari, huquqiy baho, tergovchi, surishtiruvchi, prokuror, sud, qilmish.

КОНЦЕПЦИЯ, МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ЭТАПЫ КВАЛИФИКАЦИИ ДЕЯНИЯ

Суннатов Вохид Тошмуродович,

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

и.о. доцента кафедры “Уголовное право,

криминология и противодействие коррупции”

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье понятие квалификации деяния, методологические основы и этапы квалификации преступления представляет собой сложный процесс. Это связано с тем, что в процессе квалификации конкретного преступления действия человека оцениваются путем изучения фактов дела и определения содержания уголовного закона, общего для всех таких преступлений в Особенной части Уголовного кодекса. В уголовном праве существует два основных типа квалификации деяния: 1) формальный (юридический); 2) неформальный (доктринальный). Формальная квалификация проводится дознавателем, следователем, прокурором и судьями на основании уголовных и иных правовых норм и оформляется постановлением. В юридической литературе указывается, что критериями формальной квалификации являются: а) оценка акта имеет юридическое значение; б) оценка акта имеет определенную юридическую силу; с) квалификация применима к конкретным уголовным делам. В отличие от формальных квалификаций, неформальные квалификации не имеют каких-либо юридических последствий, поскольку они выполняются организациями, не имеющими полномочий на судебное преследование (например, юристами, работниками

СМИ, учеными-юристами, занимающимися научной деятельностью). Поэтому, когда дело доходит до квалификации действия, его часто понимают как формальную форму.

Ключевые слова: квалификация, законность, квалификация деяния, преступление, следователь, уголовный и уголовно-процессуальный кодексы, правовая оценка, следователь, дознаватель, прокурор, суд, акт.

CONCEPT, METHODOLOGICAL FUNDAMENTALS AND STEPS OF QUALIFICATION OF WRONG DEEDS

Sunnatov Vokhid Toshmurodovich,

Doctor of Philosophy in Law (PhD),

Tashkent State University of Law

Acting Assistant Professor of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption

Abstract. In this article, the concept of qualification of an act, methodological bases and stages, qualification of crimes is a complex process. requires. This is because in the process of qualifying a particular crime, a person's performance is assessed by studying the facts of the case and determining the content of the criminal law common to all such crimes in the Special Part of the Criminal Code. There are basically two types of qualification of an act in criminal law: 1) formal (legal); 2) informal (doctrinal). Formal qualification is carried out by the inquiry officer, investigator, prosecutor and judges on the basis of criminal and other legal norms and is formalized by a decision. The legal literature states that the criteria for formal qualification are: a) the assessment of the act has legal significance; b) has a certain legal effect; (c) Qualifications apply to specific criminal cases. Unlike formal qualifications, informal qualifications do not have any legal consequences because they are performed by entities that do not have the authority to prosecute (e.g., lawyers, media professionals, legal scholars engaged in scientific activity). Therefore, when it comes to qualifying an act, it is often understood as a formal form.

Keywords: qualification, rule of law, qualification of the act, crime, investigator, criminal and criminal procedure codes, legal assessment, investigator, inquiry officer, prosecutor, court, act.

Kirish

Qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquq va manfaatlarining ishonchli himoyasini ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Bu jarayonda boshqa huquq sohalari bilan bir qatorda jinoyat qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda "Harakatlar strategiyasi" doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida jinoyat qonunchiligiga bir qator o'zgartirishlar kiritilib, jinoyat va jazo tizimi ancha yengillashtirildi. Shunga qaramasdan 2018-yil 28-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomada Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev jinoyat qonunchiligini yanada takomillashtirish va liberallashtirish bo'yicha ishlarni davom ettirish lozimligi to'g'risida quyidagilarni ta'kidladi: "Jinoyat va jinoyat-protsessual kodekslari qariyb 25 yil oldin qabul qilingan. O'tgan davrda jamiyatdagi munosabatlar, odamlarning yashash tarzi, ongi, dunyoqarashi o'zgardi. Shu sababli bu kodekslar bugungi davr talablariga javob bermay qoldi. Ma'lumki, qonunchilikda jazoni

og'irlashtirish va yengillashtirishga oid moddalar bor. Lekin ular tergovchi yoki sudyaning ixtiyoriga, ya'ni inson omiliga to'liq bog'liq bo'lib qolmasligi kerak. Aks holda, biz uchun muqaddas bo'lgan adolat mezoni buziladi. Shuning uchun jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini tubdan qayta ko'rib chiqish zarur" [1]. Bu kabi konseptual talablar, asosan, jinoiy sudlovni amalga oshirish jarayonida fuqarolarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish maqsadini ko'zlaydi. Ya'ni jinoyat ishi bo'yicha jabrlanuvchi yoki ayblanuvchi sifatida ishtirok etayotgan shaxslarning shaxsiy huquq va erkinliklari sud-tergov organlarining noto'g'ri qaror qabul qilishi tufayli buzilmasligi kerak. Ushbu maqsadga erishish uchun esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qilmishga qonun asosida to'g'ri huquqiy baho berilishi, ya'ni shaxsning aybli yoki aybsizligi, uning qilmishidagi belgilar Jinoyat kodeksining muayyan moddasidagi jinoyat tarkibi belgilari bilan bir xil ekanligi aniqlanishi lozim. Negaki O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 16-moddasiga ko'ra, "Ushbu kodeksda nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari

mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi" [2]. Bundan ko'rinadiki, shaxsning sodir etgan qilmishi jinoyat qonunining aniq moddasida nazarda tutilgan bo'lsagina, u jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Shu sababli tergov organlari, prokuratura va sud shaxsning qilmishiga mos keluvchi jinoiy-huquqiy normani tanlash jarayonida yanada diqqatli bo'lishi lozim. Mazkur jarayon jinoyat huquqida *"qilmishni kvalifikatsiya qilish"* degan umumiy nom bilan yuritiladi. Kvalifikatsiya so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, lotincha *"qualis"* – *"qanday"*, *"qanday sifatli"* va *"facere"* – *"qilish"* degan ma'nolarni anglatadi.

Bundan tashqari, "Yuridik atamalarining izohli lug'ati"da kvalifikatsiya tushunchasiga *"malaka"*, *"kasb"*, *"ixtisos"*, *"mahorat"* singari izohlar berilgan [3]. Jinoyat huquqi nazariyasida qilmishni kvalifikatsiya qilish masalasi ham xorijiy, ham mahalliy huquqshunos olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular mazkur tushunchani turlicha talqin qilishgan. Jumladan, V.N. Kudryavsevning fikricha, *"jinoyatni kvalifikatsiya qilish – qilmishga yuridik baho berishni, ushbu jinoyat alomatlarini aks ettirgan tegishli jinoiy-huquqiy normani ko'rsatishni bildiradi"* [4]. B.A. Kurinov esa jinoyatni kvalifikatsiya qilish deganda, *"sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning belgilarini JK Maxsus qismining muayyan normasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi belgilariga solishtirib, ularning mosligini aniqlash va yuridik jihatdan mustahkamlash"*ni nazarda tutadi [5]. Shuningdek, R. Kabulov ham yuqoridagilarga o'xshash fikr bildirib, *"jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish – bu sodir etilgan qilmish belgilari bilan Jinoyat kodeksi Maxsus qismida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi belgilarining to'liq mos kelishini aniqlash va yuridik jihatdan mustahkamlashdir"*, – deya ta'kidlaydi [6]. Mazkur ta'riflar shakl jihatdan muayyan farqlarga ega bo'lsa-da, mohiyatan yagona mazmunni o'zida mujassamlashtiradi. Shundan kelib chiqqan holda, aytishimiz mumkinki, *qilmishni kvalifikatsiya qilish deganda, real hayotda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning belgilari bilan Jinoyat kodeksi Maxsus qismi jinoiy-huquqiy normasida ko'rsatilgan aniq jinoyat tarkibi belgilarini o'zaro solishtirib, ular o'rtasidagi moslikni aniqlashdan iborat jarayon tushuniladi.* Masalan, A shaxs B ning telefon apparatini unga

bildirmasdan yashirin ravishda egallab oldi. Bu vaziyatda A ning qilmishi Jinoyat kodeksining 169-moddasida nazarda tutilgan *"o'g'rilik"* jinoyati ekanligini aniqlash bilan bog'liq jarayon qilmishni kvalifikatsiya qilish hisoblanadi.

Material va metodlar

Maqolada umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish murakkab jarayon bo'lib, kvalifikatsiyani amalga oshiradigan tergovchi, surishtiruvchi, prokuror va suddan mantiqiy fikrlash qobiliyatini, ko'plab fakt va belgilarni o'zaro solishtirgan holda qilmishga huquqiy baho berishni talab qiladi. Chunki muayyan jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida ishdagi haqiqiy holatlarni o'rganish va JK Maxsus qismida shunday turdagi jinoyatlarning barchasi uchun umumiy bo'lgan jinoyat huquqiy normaning mazmunini aniqlash orqali shaxsning qilmishiga huquqiy baho beriladi. Mazkur huquqiy baho to'g'ri amalga oshirilsa, jinoyat qonunchiligida belgilangan asosiy vazifalar, shuningdek, bugungi kunda jinoiy-huquqiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsadlarga erishilgan bo'ladi. Qilmishni to'g'ri kvalifikatsiya qilishning ahamiyati to'g'risida yuridik fanlar doktori, professor M.Usmonaliyev quyidagicha fikr yuritadi: *"Sodir etilgan jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish, eng avvalo, odil sudlovni amalga oshirish va jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsning aybiga yarasha jazo tayinlashning asosiy sharti hisoblanadi va bu, o'z navbatida, muhim ijtimoiy-siyosiy va huquqiy ahamiyatga egadir"* [1].

Darhaqiqat, odil sudlovning amalga oshirilishi va jinoyat qonuni prinsiplarining samarali ishlashi qilmishni kvalifikatsiya qilish bilan chambarchas bog'liq. Aytaylik, shaxsning sodir etgan jinoyati, aslida, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar sirasiga kirsa-yu, ammo sud-tergov organlari uning xatti-harakatiga noto'g'ri huquqiy baho berib, unga nisbatan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun belgilangan sanksiya doirasida jazo tayinlasa, aybdorning huquq va manfaatlari buziladi. Yoki, aksincha, uning sodir etgan qilmishi og'irroq jazo tayinlashni nazarda tutishiga qaramasdan, sud tomonidan yengil jazo chorasi qo'llansa, bu jazo aybdorning axloqan tuzalishi

uchun yetarli bo'lmashligi va kelgusida yangi jinoyat sodir etishiga yo'l ochib berishi mumkin. Shu bilan birga, aybdorning qilmishiga mos jazo qo'llanmasligi jabrlanuvchining huquq va manfaatlarini buzilishiga, fuqarolarda odil sudlovga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'lishiga olib keladi.

Jinoyat huquqida qilmishni kvalifikatsiya qilishning, asosan, ikki turi mavjud: 1) rasmiy (legal); 2) norasmiy (doktrinal). Rasmiy kvalifikatsiya surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudyalardan tomonidan jinoyat va boshqa qonun normalari asosida amalga oshirilib, qaror bilan rasmiylashtiriladi. Yuridik adabiyotlarda rasmiy kvalifikatsiyaning belgilari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan: a) qilmishga berilgan baho huquqiy ahamiyatga ega bo'ladi; b) muayyan huquqiy oqibatni keltirib chiqaradi; c) kvalifikatsiya aniq jinoyat ishi materiallariga taalluqli bo'ladi [7]. Rasmiy kvalifikatsiyadan farqli ravishda, norasmiy kvalifikatsiya jinoyat ishini yuritish vakolatiga ega bo'lmagan subyektlar (masalan, advokatlar, ommaviy axborot vositalarining xodimlari, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi huquqshunos olimlar) tomonidan amalga oshirilganligi sababli hech qanday yuridik oqibatlarni keltirib chiqarmaydi. Shuning uchun ham qilmishni kvalifikatsiya qilish haqida so'z yuritilganda, ko'pincha uning rasmiy shakli tushuniladi. Ammo bu norasmiy kvalifikatsiya jinoyat huquqida hech qanday ahamiyatga ega emasligini anglatmaydi. Masalan, ilmiy sohada faoliyat olib boruvchi huquqshunos olimlar jinoyat huquqidagi muammolarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan tadqiq etish orqali o'z ilmiy ishlarida jinoyat qonunchiligi uchun yangi takliflar bera oladi. Mazkur takliflar qonunchilikka joriy etiladigan bo'lsa, qilmishni kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq ayrim amaliy muammolar ham o'z yechimini topadi. Demak, norasmiy kvalifikatsiyaning ahamiyatli jihatlaridan biri rasmiy kvalifikatsiyani amalga oshirishning huquqiy asosi bo'lgan jinoiy-huquqiy normalarga huquqshunos olimlarning zamon talabiga javob beradigan ilg'or fikr va qarashlarini joriy etishdir. Qilmishni norasmiy kvalifikatsiya qilishning yana bir ahamiyati shundaki, himoyachi yoki ommaviy axborot vositalari *jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida* yoki *shaxsni ayblanuvchi sifatida ishga jalb qilish to'g'risida qarorda* nazarda tutilgan rasmiy kvalifikatsiya haqida tanqidiy fikr bildirish

orqali uning o'zgarishiga sababchi bo'lishi mumkin. Shunga qaramasdan jinoyat huquqida rasmiy kvalifikatsiya markaziy o'rinni egallaydi va qilmishni kvalifikatsiya qilish deganda, aynan sud-tergov organlari tomonidan amalga oshiriladigan kvalifikatsiya tushuniladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, sodir etilgan qilmish bo'yicha yuridik oqibat keltirib chiqaruvchi huquqiy bahoni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud beradi. Bundan ko'rinadiki, jinoyatni kvalifikatsiya qilish jinoyat ishini yuritishning sudga qadar bo'lgan bosqichida ham, sud bosqichida ham amalga oshirilishi mumkin. Ta'kidlash joizki, muayyan holat bo'yicha jinoyat ishini qo'zg'atish uchun aybdorning qilmishiga mantiqan mos keluvchi taxminiy normani tanlash lozim. Mazkur boshlang'ich kvalifikatsiya tergovga qadar tekshiruv davomida to'plangan og'zaki va yozma ma'lumotlar, tushuntirishlar asosida qilinadi. Bunda ish bo'yicha barcha holatlar to'liq o'rganilmaganligi sababli kvalifikatsiyada ayrim kamchiliklarning mavjud bo'lishi tabiiy holdir. Jinoyat ishi qo'zg'atilgach esa dastlabki tergov jarayonida qilmishning haqiqatan jinoyat yoki jinoyat emasligi, jinoyat bo'lsa, uni sodir etgan shaxsning aybli yoki aybsizligi va boshqa ish uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarga aniqlik kiritilib, ayblov xulosasida tergov organining yakuniy kvalifikatsiyasi aks ettiriladi. Ammo bu bilan kvalifikatsiya qilish jarayoni yakunlanmaydi. Jinoyat ishini yuritish ustidan nazoratni amalga oshirayotgan prokuror ham, shuningdek, sud muhokamasi davrida qo'shimcha dalillarni olish orqali sud ham kvalifikatsiyani o'zgartirishi mumkin. Qilmishning yakuniy kvalifikatsiyasi sudning hukmi bilan mustahkamlanadi.

Qilmishni kvalifikatsiya qilish jinoyat huquqida markaziy o'rinni egallaydi hamda boshqa sohalarida bo'lgani kabi mazkur jarayonda ham falsafa va mantiq qoidalaridan keng foydalaniladi. Falsafa qonuniyatlaridan foydalanish shunda ko'rinadiki, qilmish kvalifikatsiyasi yakkalik va umumiylikning o'zaro munosabatidan kelib chiqadi. R. Kabulovning fikricha, "yakkalik – narsa yoki voqelikning sifatini anglatadi, ularning xususiyati, o'ziga xosligi, aniq makon va vaqtda bo'lganligini nazarda tutadi. Umumiylik deganda, "obyektiv borliqdagi yagona predmet va hodisa belgilari obyektiv xususiyatlarining takrorlanishi, ularning o'zaro munosabat va

aloqalarining o'xshashligi tushuniladi" [8]. Sodda qilib aytganda, yakka – bu real hayotda sodir etilgan har qanday qilmishdir. Umumiylik esa JK Maxsus qismi normasida belgilangan aniq jinoyat tarkibini nazarda tutadi. Ya'ni Jinoyat kodeksidagi jinoiy-huquqiy norma ishlab chiqilayotganda, real hayotdagi muayyan ijtimoiy xavfli qilmishning barcha muhim belgilari umumlashtiriladi. Shu sababli bir norma turli ko'rinishlarda sodir etilishi mumkin bo'lgan qilmishning hamma jinoiy-huquqiy belgilarini o'zida qamrab oladi. Jinoyatni kvalifikatsiya qiluvchi shaxs yakka jinoyatning jinoiy-huquqiy belgilarini aniqlab chiqib, uni JK normasidagi jinoyat tarkibi belgilari bilan solishtirib ko'radi. Agar bu belgilar bir-biriga mos bo'lsa, sodir etilgan qilmish Jinoyat kodeksining aynan o'sha moddasi bilan malakalanadi. Demak, shu orqali falsafaning yakka va umumiy holatlarni taqqoslash qonuniyatidan jinoyatni kvalifikatsiya qilishda foydalaniladi.

Mantiq qonuniyatlariga keladigan bo'lsak, kvalifikatsiyani amalga oshiruvchi shaxs, asosan, quyidagi metodlardan foydalanish mumkin: *analiz, sintez, induksiya* va *deduksiya*. *Analiz* usulidan foydalanishning mohiyati shundaki, kvalifikatsiya qiluvchi shaxs obyektiv voqelikda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishni belgilarga bo'lib tahlil qiladi. Ma'lumki, har bir qilmish o'zida jinoiy-huquqiy, kriminalistik va jinoyat-protsessual ahamiyatga ega belgilarni mujassamlashtiradi. Masalan, A shaxs tomonidan "bosqinchilik" jinoyati sodir etilganda, A ning tashqi ko'rinishi, soch rangi, kiyimi, alohida belgilari, shuningdek, jabrlanuvchida tan jarohatining mavjudligi kabilar, asosan, jinoyatni ochish va tergov qilish uchun ahamiyatli. Ya'ni aybdorga xos bo'lgan belgilar uni izlab topishda kriminalistik jihatdan muhim bo'lsa, jabrlanuvchiga yetkazilgan tan jarohatining darajasini aniqlash uchun sud-tibbiy ekspertizasini tayinlash lozimligi jinoyat-protsessual ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, A ning yoshi, aqli rasoligi, jinoyatni takroran sodir etayotganligi, quroldan foydalanganligi, ekspertiza xulosasi bilan aniqlangan tan jarohatining darajasi va boshqa bir qancha belgilar jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo'lib, qilmish kvalifikatsiyasiga ta'sir qiladi. *Analiz* usulida yuqoridagi belgilarning barchasi alohida-alohida o'rganib chiqiladi. *Sintez* bevosita analizning mantiqiy davomi bo'lib, o'rganilgan barcha belgilar orasidan faqatgina

jinoiy-huquqiy ahamiyatga ega bo'lganlarini ajratib olib, xulosa qilishni anglatadi. Induksiya va deduksiya metodlari esa falsafaning yakka va umumiylik tamoyillariga tayanadi, ya'ni qilmishni ushbu usullardan foydalanib kvalifikatsiya qilayotganda, obyektiv voqelikda sodir bo'lgan qilmish juz'iylik deb, JK normasida o'z aksini topgan aniq jinoyat tarkibi esa umumiylik deb qabul qilinadi. Induksiya juz'iylikni umumiylikka taqqoslash orqali xulosa qilinsa, deduksiya buning teskarisi bo'ladi.

Yuqorida muayyan jinoyat ishi bo'yicha kvalifikatsiya jinoyat ishini yuritishning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi mumkinligi xususida so'z yuritgandik. Bunda surishtiruvchi va tergovchi tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov (surishtiruv) davomida, prokuror ayblov xulosasi yoki ayblov dalolatnomasini tasdiqlash jarayonida, sud esa ishni sudda ko'rish bosqichida qilmishga huquqiy baho beradi. Jinoyat huquqida **"qilmishni kvalifikatsiya qilish bosqichlari"** degan tushuncha ham mavjud bo'lib, bu yuqorida ko'rib o'tilgan jinoyat ishini yuritishning bosqichlari bilan bir xil mazmunga ega emas. Negaki jinoyat ishini yuritishga vakolatli bo'lgan har bir subyekt qilmishni kvalifikatsiya qilishning barcha bosqichlarini o'zi bajaradi, ya'ni kvalifikatsiyaning birinchi bosqichini tergovchi, ikkinchi bosqichini prokuror va uchinchi bosqichini sud amalga oshirmaydi. Lekin tergovchi qilmishni noto'g'ri yoki noaniq kvalifikatsiya qilsa, prokuror ayblov xulosasini o'rganish jarayonida, sud esa ishni sudda ko'rish bosqichida ushbu xatoni to'g'rilashi mumkin.

Yuridik adabiyotlarda jinoyatni kvalifikatsiya qilish bosqichlari haqida huquqshunos olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan. Jumladan, V.N. Kudryavsev qilmishni kvalifikatsiya qilishning quyidagi bosqichlarini ajratib ko'rsatgan: 1) ishning faktik holatlarini tahlil qilish; 2) mos keluvchi normani tanlash; 3) kerakli normani tashkil qiluvchi yuridik manba jumlasining tuzilishi to'g'ri ekanligini aniqlash; 4) normaning maqsadi va uning tuzilishini belgilash; 5) normani sharhlash; 6) yakuniy xulosani mustahkamlovchi normani aniqlab, qaror qabul qilish [9].

V.N. Kudryavsevning qarashlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, haqiqatan ham, mazkur bosqichlarning birinchisini bir organ, ikkinchisini boshqa organ emas, balki barcha bosqichlarni

bitta organ ketma-ket bajaradi. Masalan, huquqni muhofaza qiluvchi organga jinoyat sodir etilganligi to'g'risida xabar kelib tushadigan bo'lsa, tergovchi jinoyatning faktik holatlarini tahlil qilib, kerakli normani tanlashdan to' jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risida qaror qabul qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni o'zi amalga oshiradi. Agar u mazkur jarayonda xato va kamchiliklarga yo'l qo'ysa, prokuror yoki sud ham yuqoridagi bosqichlarni birma-bir tahlil etib, tergovchining xato va kamchiliklarini to'g'rilaydi.

Xulosalar

Ba'zi chet ellik huquqshunoslar, shu jumladan, V.N. Kudryavsev ham jinoyatni kvalifikatsiya qilish bosqichlarini jinoyat-protsessual ish yuritish bosqichlariga yo'naltirgan holda tahlil qilgan. Bu yo'nalishda V.N. Kudryavsev jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishni besh bosqichga ajratgan: 1) jinoyat ishini qo'zg'atish; 2) ayblov xulosasi; 3) ayblov xulosasini tuzish va tasdiqlash; 4) ayblanuvchini sudga berish; 5) sud jarayoni va ishni nazorat tartibida qayta ko'rib chiqish. N.G. Kadnikov esa mazkur bosqichlarni batafsil tahlil qilishga harakat qilgan. Unga ko'ra, "*Kvalifikatsiyaning birinchi bosqichida* jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risida qaror qabul qilish orqali jinoyatga aloqadorlik belgilanadi. *Ikkinchi bosqichda* shaxsning harakatlarida qanday jinoyat tarkibi mavjudligi aniqlanadi. Protsessual jihatdan bu ayblanuvchi sifatida jalb qilish to'g'risidagi qarorda aks ettiriladi. Jinoyat kvalifikatsiyasini amalga oshirishning *uchinchi bosqichi* ayblov e'lon qilingandan so'ng boshlanadi va ayblov xulosasi yoki jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi qarorning bekor qilinishi bilan tugaydi. Ushbu bosqich qilmish kvalifikatsiyasi xususida tergovchi va prokuror nuqtayi nazarining yakuni hisoblanadi. *To'rtinchi bosqich* – jinoyat ishi bo'yicha sud muhokamasi. Mazkur bosqichda sud jinoyatning haqiqiy holatlarini ayblov xulosasidagi kvalifikatsiya bilan solishtirib ko'radi va ayrim holatlarda uni o'zgartiradi. Nihoyat, *beshinchi bosqich* kassatsiya va nazorat tartibida qilmishga huquqiy baho berish bilan ifodalanadi [10]. Ushbu tasnifga e'tibor qaratadigan bo'lsak, har bir bosqichni jinoyat ishini yuritishga vakolatli bo'lgan alohida subyekt amalga oshirishini tushunishimiz mumkin. Ya'ni ayblov xulosasini tasdiqlashga faqatgina prokuror haqli, jinoyat ishini qo'zg'atish esa tergovchi va prokurorning

vakolatiga kiradi, sud mazkur ishni amalga oshira olmaydi. Shunday ekan, yuqoridagi bosqichlarni *jinoyatni kvalifikatsiya qilish bosqichlari* emas, balki jinoyat ishini yuritish bosqichlarida qilmishni kvalifikatsiya qilish deb tushunishimiz lozim.

Mahalliy huquqshunos olimlarimizdan R. Kabulov, A. Otajonov va I. Sottiyevlar qilmish kvalifikatsiyasining 3 bosqichini farqlashgan. Bular: 1) sodir etilgan qilmishning umumiy belgilarini aniqlash (huquqbuzarlikning turini aniqlash); 2) sodir etilgan qilmishning turdosh belgilarini aniqlash; 3) kvalifikatsiya qilinayotgan qilmish belgilarining jinoyat qonuni Maxsus qismi normalarida nazarda tutilgan aniq jinoyat tarkibi belgilariga mosligini aniqlash [11]. Ushbu bosqichlarni birma-bir tahlil qilib chiqamiz.

Ma'lumki, shaxs tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik yuridik javobgarlikning muayyan turini keltirib chiqaradi. Shu sababli qilmishni kvalifikatsiya qilish uchun, avvalambor, u jinoyat yoki jinoyat emasligi masalasi aniqlashtirilishi lozim. Agar sodir etilgan qilmish ma'muriy, fuqarolik yoki intizomiy javobgarlikdan birini nazarda tutsa, o'z-o'zidan uni jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilish mumkin emas. Qilmishni jinoyat deb topishning huquqiy asosi esa Jinoyat kodeksining 14-moddasida aniq belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, "*Ushbu kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi*" [12]. Bu ta'rifdan jinoyatga xos bo'lgan quyidagi muhim belgilarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- 1) qilmishning qonunga xilofligi;
- 2) ijtimoiy xavflilik;
- 3) aybning mavjudligi;
- 4) qilmish uchun jinoyat qonunida jazo belgilanganligi.

Qilmishda mazkur belgilarning yo'qligi uni jinoyat sifatida baholashni rad etadi. Shu jihatdan, kvalifikatsiyaning *dastlabki bosqichi* muayyan qilmishda yuqoridagi belgilarning mavjudligini aniqlashdan iboratdir. *Ikkinchi bosqich* – qilmishning turdosh belgilarini aniqlash. Boshqacha qilib aytganda, bu bosqichda tergovchi tomonidan jinoyatning turdosh obyekti aniqlanadi. Negaki jinoyat sodir etilgan vaqtda jinoyat tarkibining boshqa elementlari ma'lum bo'lmasa-da, tajovuz qaratilgan obyekt aniq bo'ladi. Ya'ni jinoyat qonunchiligi bilan

qo'riqlanadigan obyektga zarar yetganda yoki shunday zarar yetishning real xavfi mavjud bo'lganda, jinoyat yuzaga keladi. Shunday qilib, qilmishga huquqiy baho berishning ikkinchi bosqichida tajovuz obyektidan kelib chiqib, uning taxminan qaysi jinoyat tarkibiga to'g'ri kelishi haqida xulosa qilinadi. Mazkur masalani hal etish huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi uchun majburiy xususiyatga ega, chunki jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risidagi qarorda Jinoyat kodeksining muayyan normasi ko'rsatilishi majburiy bo'lib, u ishning keyingi yo'nalishini belgilab beradi. Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, mazkur bosqichda jinoyatning subyeksi, subyektiv va obyektiv tomoni to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lmaganligi sababli qilmishning barcha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan jinoiy-huquqiy normani aniqlashning imkoni yo'q. Masalan, A shaxs o'zining "Kobalt" rusumli avtomobilini yo'l yoqasida qoldirib, o'zi oziq-ovqat do'koniga kirib ketdi. Qaytib chiqqanida esa mashinasi o'z joyida yo'qligini ko'rdi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bu haqda xabar berdi. Bu holatda tergovchi jinoiy qilmish bo'yicha quyidagi ikkita tusmolni ilgari surishi mumkin:

1) A ning avtomobili noma'lum shaxs yoki shaxslar tomonidan yashirin ravishda o'g'irlangan (JK 169-moddasi);

2) transport vositasini olib qochish jinoyati sodir etilgan (JK 267-moddasi).

Demak, holat bo'yicha jinoyatning taxminiy turdosh obyekti aniq, ya'ni A ning mulkiy huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar yoki jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar. Shundan kelib chiqib, tergovchi jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risidagi qarorda JK 169-moddasi yoki 267-moddasini ko'rsatadi. Qilmishning bu moddalardan aynan qaysi biriga to'g'ri kelishi esa *uchinchi bosqichda* jinoyat tarkibining barcha elementlari to'la tahlil qilingandan so'ng aniqlanadi va kvalifikatsiya yakunlanadi. Fikrimizcha, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishning yuqorida tilga olingan 3 bosqichli ko'rinishi ham ilmiy, ham amaliy jihatdan asosli hisoblanadi. Chunki "kvalifikatsiya" tushunchasini sodda qilib, sodir etilgan qilmishni Jinoyat kodeksi normasidagi jinoyat tarkibiga solishtirish va shu orqali ularning mosligini aniqlash deyish mumkin. Bu jarayonga qo'shimcha bosqichlarni kiritish kvalifikatsiyani asossiz ravishda murakkablashtirishga olib keladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi" gazetasining rasmiy veb-sayti. www.xs.uz.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti. www.lex.uz
3. Kabulov R. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. Tashkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. p. 7.
4. Yuridik atamalarining izohli lug'ati II jild. Tashkent, Adolat, 2006, p. 135.
5. Kudryavsev V.N. Obshaya teoriya kvalifikatsii prestupleniy. Moscow, 2004. p. 4.
6. Kurinov B.A. Nauchnû osnovû kvalifikatsii prestupleniy. Moscow, Izd-vo MGU, 1984, p. 15.
7. Kabulov R. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. Tashkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. p. 8.
8. Usmonaliyev M., Bakunov P. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Tashkent, Nasaf, 2010. p. 137.
9. Kabulov R. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. Tashkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012, p. 10.
10. Kabulov R. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. Tashkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012, pp. 13-14.
11. Kudryavsev V.N. Obshaya teoriya kvalifikatsiya prestupleniy. Moscow, 2004, p. 198-207.
12. Kudryavsev V.N. Obshaya teoriya kvalifikatsiya prestupleniy. Moscow, Yurist, 2007, p. 108.
13. Kabulov R. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. Tashkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. pp. 13-14.

14. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti. www.lex.uz
15. Shamsidinov, Zayniddin Ziyoviddinovich. "Noqonuniy moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq ayrim qilmishlarni kvalifikatsiya qilish masalalari". Jurnal pravovûx issledovaniy special 3 (2020).
16. Xudaykulov F. Theoretical aspects of facultative signs of the objective side of crime and their legal significance // ProAcademy. 2018, T. 1. No. 4, p. 75–79.
17. Khudaykulov F. K. Signs Of The Objective Side Of Crime In The Theory Of Criminal Law Belonging To The Romano-Germanic Legal Family: Theoretical And Practical Problems // The American Journal of Political Science Law and Criminology. 2021, T. 3, No. 01, pp. 57–62.
18. Xudaykulov F. X. Jinoyat tarkibi obyektiv tomoni zaruriy va fakultativ belgilarining jinoyat-huquqiy ahamiyati: tahlil va taklif // Jurnal pravovûx issledovaniy. 2021, T. 6, No. 1.
19. Kh F. Khudaykulov. Force And threat of violence are as the ways of commission of rape: national and foreign experience. Psychology and education. 2021, T. 58, No. 1, p. 1123–1132.
20. Khudaykulov F. K. Signs Of The Objective Side Of Crime In The Theory Of Criminal Law Belonging To The Romano-Germanic Legal Family: Theoretical And Practical Problems // The American Journal of Political Science Law and Criminology. 2021, T. 3, no. 01, p. 57–62.
21. Feruzbek K. Offence of infanticide: national and foreign experiences // Review of law sciences. 2020. No. 4.
22. Kh K. F. Extreme cruelty is as the way of committing crime of murder: theoretical-practical problems and their solutions // European Journal of Research. [https://journalofresearch.info/-Vienna, Austria](https://journalofresearch.info/-Vienna,Austria). 2019, T. 4, No. 10, p. 8–11.
23. Xudaykulov F. X. Uголовно-правовûе аспектû фактативнûх признаков об'ективной сторонû преступления при квалификатсии деяния // Pravo i jizn. 2019, no. 2, p. 115–122.
24. Xudaykulov F. Vzaimootnosheniya i uголовно-правовûе аспектû фактативнûх признаков об'ективной сторонû преступления // Review of law sciences. 2018, No. 3.
25. Allanova A. A., Kaustav C. A Comparative Study Of The Economic Crime In Uzbekistan And India: A Critical Analysis // The American Journal of Political Science Law and Criminology. 2021, T. 3, No. 04, p. 73–78.
26. Allanova A. A. yevropa davlatlari va Amerika Qo'shma Shtatlarida qonunga xilof ravishda davlat chegarasidan o'tish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari // Jurnal pravovûx issledovaniy. 2020, T. 5, No. 8.
27. A.Allanova Nezakonnyû vûezd za granitsu ili v'ezd v respubliku uzbekistan. ponyatie i osobennosti // Review of law sciences. 2018. ¹². (data obraûeniya: 16.11.2021).
28. Allanova Aziza Antisotsialnoe povedenie nesovershennoletnego – ob'ektivnyû признак преступления v vide vovlecheniya v deystviya // Review of law sciences. 2020. ¹ Spetsvûpusk. (data obraûeniya: 16.11.2021).
29. Allanova A. A. Responsibility For Crimes Related Unlimited Border In European Countries And The United States Of America // Electronic Journal" Legal Research. 2020, T. 8, No. 5.
30. Kurbanov M. Osobennosti uголовной otvetstvennosti doljnostnûх lits // Pravovûе issledovaniya. 2017, No. 2. p. 35–45.
31. Kurbanov Ma'rufjon Ponyatie, vidû nezakonnyû finansovûх operatsiy i mejdunarodnûе standartû protivodeystviya im // Review of law sciences. 2020. ¹ Spetsvûpusk. (data obraûeniya: 06.12.2021)
32. Kurbanov Marufjon Mamadaminovich. Criminal-legal analysis of some crimes related to obstruction of business activity in Uzbekistan. Journal of Law Research. 2020, vol. 5, issue 1, pp. 46–52
33. Salaev N., Khamidov N. Qualification Of Smuggling: Uzbek Legislation And Foreign Experience // Ilkogretim Online. 2021, T. 20, No. 3.
34. Xudaykulov F. X. Jinoyat va jinoyat tarkibi tushunchalari hamda ular (subyektiv va obyektiv) belgilarining o'zaro munosabati: inctrumental tahlil va taklif // jurnal pravovûx issledovaniy. 2021, T. 6, No. 11.